

# O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi kimyo sanoat mahsulotlarining 14-mart sanasidagi savdo yakunlari

// 14.03.2024

<https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/birja20240314>



"O'zbekimiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi o'z savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan kimyo mahsulotlari savdosining 2024-yil 14-mart sanasidagi yakuni bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etadi.

Joriy yilning 14-mart kuni "O'zbekimiyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar tomonidan O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi ochiq birja savdolari orqali jami 9 137,8 tonna 35 008,3 mln so'mlik mineral o'g'itlar sotildi. O'tgan kuni bu ko'rsatkich yuqori bo'lgan, ya'ni 13-mart kuni 36 278,1 mln so'mlik 10 399,7 tonna mineral o'g'itlar sotilgan.

Birja savdolariga tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan ammiakli selitra, karbamid, sulfat ammoniy, ammos, PS-Agro, kaliyli o'g'itlar, superfosfat azot-fosforli o'g'it kabi mahsulotlar qo'yildi. Savdoga qo'yilgan mineral o'g'itlardan ammiakli selitra eng ko'p sotilgan mahsulot bo'lib, sotuvning 50,9 foizini tashkil etdi.

Shuningdek, "O'zbekimiyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar tomonidan mineral o'g'itlardan tashqari bugungi kun sanoatida keng qo'llanilayotgan PVX, kaustik soda, formalin, natriy gipoxlorid, kalsinatsiyalangan soda, azot kislotasi va suyuq kislorod kabi bir qator kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Ular ham doimiy ravishda birja savdolariga qo'yib boriladi.

14-mart kuni jami 5035,1 mln so'mlik boshqa turdagi kimyo mahsulotlar sotildi. O'tgan kuni bu ko'rsatkich past bo'lgan, ya'ni 13-mart kuni 3 663,3 mln so'mlik boshqa turdagi kimyo mahsulotlari sotilgan. Sotuvning asosiy qismini, ya'ni 35,8 foizini kaltsinatsiyalangan soda mahsuloti tashkil etdi.

O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi "O'zbekimiyosanoat" AJ savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar savdosi bo'yicha barcha ma'lumotlarni [www.uzkimyosanoat.uz](http://www.uzkimyosanoat.uz) rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi <https://t.me/uzkimyosanoat> va <https://www.facebook.com/uzkimyosanoat/> rasmiy sahifalari orqali olishingiz mumkin.

Mahsulotlarni yetkazib berish va ularning sifat darajasi bo'yicha taklif va e'tirozlaringiz bo'lsa, (78) 140-74-48 ishonch telefon raqamiga murojaat qilishingiz mumkin.

**"O'zbekimiyosanoat" AJ Matbuot xizmati**